

UDK:101.100.1.

## KORRUPSIYA TARAQIYOT KUSHANDASI

Ochilov Azimjon To'xtamishovich

Qashqadaryo viloyati IIB xodimi E-mail:ochilov87@mail.ru

Tel: (93) 664-87-87

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada demokratik qadriyatlar qaror topib borayotgan bir vaqtida davlat xizmatchilari tomonidan poraxo'rlik, mansab mavqeini suiste'mol qilish bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etilishi hokimiyatning obro'sizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur yetishiga, natijada amaldagi hokimiyatga nisbatan norozilikka sabab bo'ladi. Korrupsiyaning ma'lum bir mamlakatda rivojlanishi esa o'sha davlatning tanazzuliga olib keladi. Maqolada korrupsiya madaniy-ma'naviy islohotlarining mohiyatini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** demokratik qadriyatlar, davlat xizmatchilari, poraxo'rlik, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizim, korrupsiya

### KIRISH

Korrupsiya bu – mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat turi hisoblanadi. Korrupsiya faoliyati xufyona iqtisodiyotning asosiy turlaridan biridir. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat xizmatchilari tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko'zlab, boylik orttirish maqsadida xalqdan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo'lga kiritish tushuniladi. Ammo, umuman olganda, davlat amaldorlarigina emas, balki, davlat tashkilotida ishlamaydigan fuqarolar ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari bo'lishi, pora pul emas, balki boshqa narsa evaziga ma'lum xizmatni amalga oshirishlari mumkin.

Etimologik jihatdan "korrupsiya" atamasi "buzish, pora evaziga og'dirish" degan ma'noni anglatadigan lotincha "corruptio" so'zidan kelib chiqqan. Yuridik ensiklopediya mualliflarining ta'kidlashicha, "korrupsiya – mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyatdir.

Darhaqiqat, korrupsiya – ildizlari davlat xizmatini tashkil etishdagi nuqsonlarga va davlat xizmatchilarining o'ziga xos psixologiyasiga borib taqaladigan ijtimoiy hodisa. Bu korrupsiyaga qarshi avvalo ma'muriy-huquqiy va tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlari ko'riliishi zarurligidan darak beradi.

Korrupsiya fuqaroning davlat vakili bilan ma'muriy munosabatlari ma'no-mohiyatini o'zgartiradi va jamiyat uchun ham, davlat uchun ham salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.



“Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo‘sinda g‘ayriqonuniy shaxsiy naf ko‘rish maqsadida o‘z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir.

Jinoyatni jazolashdan ko‘ra, uni oldini olish singari profilaktik tadbirlarning yo‘lga qo‘yilishi qay darajada oqilonaligi allaqachon isbotlangan. Zero Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyatlarning oldini olish jinoyat qonunining asosiy vazifalaridan biri sifatida bejiz belgilab qo‘yilmagan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash maqsadlariga faqat jinoyat-huquqiy vositalar bilan erishib bo‘lmashligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. O‘ylaymizki, bunday ma’naviy buzilish holatga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas’uldirlar. Shunday ekan, davlat va jamiyat, shu bilan birga nodavlat notijorat tashkilotlari bunday illatni oldini olish va unga qarshi kurashda birgalikdagi harakatigina samarali natijalarga erishishning eng maqbul yo‘li bo‘lib hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.-Toshkent: O‘zbekiston. 2018.-B.52.

2. O‘zbekiston Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2003-yil. 1-son.1-modda. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 19.04.2018 y. 03/18/476/1087-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati» to‘g’risidagi Qonuni.

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. -Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. -B. 104

Васильевич Г. А. Активная позиция государственных служащих и граждан – основной фактор предупреждения коррупции / Г. А. Васильевич // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. - 2015. - № 2. - С. 188-192.

5 Васильев Д. В. Административная этика как средство противодействия коррупции / Д. В. Васильев, П. Ю. Дробышев, А. В. Конов. - М. : Фонд Карнеги, 2003. - 45 с.

6. Вигуру К. Деонтология государственной службы = Deontologie des fonctions publiques : пер. с фр. / Кристиан Вигуру. - М. : Гнозис : Логос, 2003. - 279 с.



- 
7. В Институте философии РАН обсудили этический аспект борьбы с коррупцией / Информационное агентство REGNUM. - Режим доступа: <http://www.regnum.ru/news/polit/1464890.html> (дата обращения: 15.03.2015).
  8. Волков А. Д. Скелет наступающего. Источник и две составные части бюрократического капитализма в России / Александр Волков, Александр Привалов. - СПб. [и др.] : Питер, 2008. - 271 с.
  9. Воронин А. А. Совершенствование человека / А. А. Воронин // Вопросы философии. - 2015. - № 8. - С. 203-208.

